***O`zbekiston Respublikasi***
***Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi***

*Andijon Davlat universiteti*
*Pedagogika fakulteti*

*"Tasviriy san`at va muxandislik grafikasi" yo`nalishi*
*IV-bosqich talabasi*

***Nabiyev Javohirning***

"Maktablarda amaliy san'at va badiiy bezak mashg'ulotlarida naqsh turlarining o'rni " mavzusidagi

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

*Ilmiy rahbar:* *M. Zokirova.*

***Andijon-2014 yil.***

**Mavzu:** Maktablarda amaliy san’at va badiiy bezak mashg’ulotlari naqsh turlarini o’rni.

**Reja:**

**Kirish.**

**I-bob. O’zbek xalq amaliy san’ati.**

1.1. Umumta’lim maktablarida amaliy san’at fanining o’rni.

1.2. Amaliy san’at turlari va naqqoshlik san’ati.

**II-bob. Milliy naqsh turlari va uning tarbiyaviy axamiyati.**

2 .1.Maktablarda amaliy san’atda tabiiy shakllar yasash.

2.2. Milliy naqshlarda rangshunoslik.

2.3. Amaliy-bezak san’atida tabiiy shakllarni yasash

2.4. Amaliy san’at fanidan 1 soatlik dars ishlanmasi.

**Xulosa.**

**Foydalanilga adabiyotlar.**

**Ilovalar**

“San’at – tabiatga taqliddir”.

Arastu .

## Kirish

**Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi:** O’zbek xalqining ko’p asrlik tarixida xalk amaliy bezak san`ati turlari boy va rang – barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy kismini tashkil etadi. O’zbek diyorida vujudga kelib gullab – yashnagan san`at turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashxurdir. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo’lsak, o’zbek amaliy bezak san`ati turlarining shox ildizlariga insoniyatning borib taqalishining guvoxi bo’lamiz.

O’lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonni jismga badiiy ishlov berishi usulida buyum yaratish faoliyati tosh asrida.q boshlangan bo’lib, asrlar osha xozirgacha uzluksiz davom etib kelmokda.

Inson ongli faoliyatning ajralmas kismi bo’lmish badiiy tafakkur va shunga muvofiq badiiy-ijodiy faoliyat insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida juda katta axamiyatga ega bo’ldi. Bunday faoliyat natijasida kelib chiqadigan estetik – baddiy idrok qobilyati kishilarda olamni, undagi mavjudotlar va voqea-xodisalarni, atrof-muxitdagi shakllar va ranglarni turfa shakl – shamoilda qaytadan aks ettirishga havas uyg’otadi. Shakl va ranglarning real xamda stillashtirilgan tasvirlarini yaratish shu tariqa kelib chiqadi va u, o’z navbatida, odamlarning kundalik turmushlaridan o’rin ola boshladi. Natijada badiiy bezaklarning xilma-xil shakllari va turlari paydo bo’ladi. O’zbekiston va umuman, O’rta Osiyo halqlarining bizgacha yetib kelgan san`at asarlari orasida naqshlar asosida yaratilgan badiiy asarlari ko’p sonni tashkil etadi. Boshqa san`atlarga nisbatan bunday naqshli bezaklar ko’pligining va takomil topganligining muayyan tarixiy sabablari bor. Ma`lumki, Islom mamalakatlarida mavjudotlar tasvirini ishlash keng odat tusiga kirmagan, zero, mavjudotlarni yarata olish faqatgina qodir Tangriga xosdir, insonlar esa bunday ishni bajarishga ojizdirlar, chunonchi, bordiyu biror ishniyuqori takomil darajasida ijro etish imkoni yuqligi avvaldan ma`lum ekan, bunday ishga kirishmoqlikning o’zi aqldan emasdur.

Boshqa aytganda, xech bir tasvir unda ifodalangan mavjudot darajasiga ko’tarila olmaydi, shu bois tasvir soxta bo’ladi.

Tasviriy san`atga bu qadar chuqur, falsafiy yondashish natijasida shartlilik, stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o’zbek milliy bezak san`atining go’rkirab rivojlanishiga turtki bo’lganki, xozirda jaxonga mashxur me`morchilikka yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, toshtaroshlik, naqqoshlik, koshinkorlik,

xattotlik va boshqa turdagi san`atlarning ajoyib darajada uyg'unlashgan mujassamligidan iboratdir.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent, Qo'qon va boshqa shaharlardagi me`morchilik va xalq amaliy bezak san`ati yodgorliklari o'tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaxr san`at asarlarining namunalari bo'lib, xalqimizning va shu bilan birga jaxon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan badiiy va madaniy merosni tashkil etadi.

Xalq amaliy san`ati kishilarning ma`naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san`ati kishilarni badiiy, axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarinishakllantirishda, hamda, madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Ma`lumki, mavjud barcha san`at turlari o'z o'qituvchisiga yoki tomoshabinga o'tkaziladigan badiiy, hissiy ruhiy ta`siri orqali bilim beradi va tarbiyalaydi. Shu o'rinda amali ybezak san`ati turlarining fazilatlari juda ham o'ziga xos bo'lib, ularni boshqa hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Ya`niy, bunday san`at asarlari ayni chog'da ham badiiy, ham amaliy vazifalarni bajara olish ularning xalq orasida keng tarqalishiga sabab bo'ladi.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:**

- Amaliy san'at turlari va naqqoshlik san'ati haqida o'quvchilarga kerakli ma'lumotlar berish;
- Amaliy san'at hamda amaliy-bezak san'atida tabiiy shakllarni yasashni o'rgatish.

**Bitiruv malakaviy ishning ob'yekti:**

- Ta'lim muassasalari

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:**

- Milliy naqshlarda rangshunoslik taxlil qilindi;
- Xalq amaliy san'ati va milliy naqsh turlari ularning tarbiyaviy axamiyati o'rganib chiqildi.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi:**

- kirish qismi, ikkitata bob, xulosa qismi, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati hamda ilovalardan iborat bo`lib, jami 69 sahifani tashkil etadi.

## I-bob. O’zbek xalq amaliy san’ati.

O`zbek dekorativ amaliy san’ati qadim zamonlardan maktovlarga sazovor bulib kelgan va uzbek madaniyati rivojlanayotgan tarixiy sharoitda unga aloxida etibor berilgan. Amaliy sanatni xaqida umumiy tushuncha O`zbekiston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining barcha saxolarida ro`y berayotgan tub o`zgarishlar manaviy, marifiy,mafkuraviy, kasbiy jixatdan mutlogo yangi zamon kishisini shakillantirishni talab etadi. Xozirgi zamon yoshlarini milliy, shargona, tarixiy kadriyatlarni hisobga olgan xolda, zamonaviy ruhda tarbiyalash hamda ijobiy insoniy fazilatlarga ega bo`lgan kasb soxiblarni tayorlash muommasi davlat migiyosidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda respublika hukumatining kator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama andozalari talablari asosida rivojlanishiga karatilmogda. Jumladan, yoshlarga talim-tarbiya berishda madaniyat, gadryat, milliy sanat namunalaridan, ota - bobolar tomonidan yaratgan va butun jahonga mashhur bo`lgan ajoyib san’at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmokda.

Ta’lim va tarbiyani maksadga muvofik amalga oshirishning eng samarali yo`l va uslublar yiGindisi o`qitish metodikasi deyiladi. Darslarni to`g`ri tashkil etish o`kituvchini o`z oldiga ko`ygan maksadiga ham boGlig. Shu bilan birga darslarni nazariy ham amaliy koidalariga asosan o`tilsa, o`quvchilarni o`zlashtirish darajasi yukori bo`ladi.

Metodika so`zining o`zi ikki xil, ya’ni umumiy va xususiy metodika turlarga bo`linadi. Umumiy metodika kasb - hunar kollejlarida olib boradigan barcha ta’lim - tarbiya ishlariga, xususiy metodika esa u yoki bu o`quv predmetiga nisbatan qo`llaniladi. Amaliy sa’nat

o`qitish metodikasi pedagogika, psixalogiya, sa’natshunoslik, etika, esetika, fiziologiya sohasidagi nazariy xulosalarga asoslanadi.Pedagogik nazariyada uch xil metod bo`lib, nutqiy namoyish etish va amaliy ishdan iboratdir. Xar bir ushbu metodlar ham bir necha bo`lak metodlarga bo`linadi.Masalan nutqiy metodlar (tushintirish, suhbat, hikoya gilish, kitob bilan ishlash, savol javob kabi metodlar bor). Ko`rgazmali metod (kuzatish, namoyish kabi metodlarga bo`linadi), amaliy ishlar (mashk, rasm ishlash, ijodiy ish o`yin kabi metodlar bor) bo`linadi.O`kituvchilar faoliyatida “uslub” degan so`z ham ishlatiladi. “O`qitish uslubi” deb biz o`qitish metodlarini ayrim kirralarini tushunamiz. “ O`qitish uslublaridan “ o`qitish metodi tashkil topadi. Metod (yunoncha metodos - bilish yoki tadgigot yo`li, nazariya, ta’limot) vokealikni amaliy va nazariy egallash, o`zlashtirish, o`rganish, bilish uchun yo`l-yo`riklar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Metodning kelib chigish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib takaladi. Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshgalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko`p vagt va kuch sariflamaydi. Metod o`z mazmuni jiha vokeylikga mos bo`lgan konunyatlarni anglab etish bilib olishga borib tagaladi. Insonning amaliy faoliyatga oid metodlar ham tidan amaliy yoki nazariy shaklda bo`lishi mumkin.

Metodlar xakidagi ta’limot fanda metodologiya deb ataladi. Inson datslab atrofdagi narsa va hadisalarni kuzatish, ularni bir-biriga taqqoslash, o`xshatish, fark kilish asosida vokeylik xakida bilimlarni to`plab borgan. Vogeylik xagidagi fanlar rivojlanishi bilan fanlarda qo`llaniladigan yo`l-yo`rikdir.Metadalogiya ( metod va logiya so`zlaridan ) – tadgigotining nazariy va Amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari tizimi hamda bundan tizim

*Mavjud metodlar ( usullar) asosan kuyidagilardi:*

- Adabiyotlarni o`rganish metodi.
- Kuzatish metodi.
- Suhbat metodi.
- Bolalarni ijodini o`rganish usuli.
- Maktab hujjatlarini tahlil kilish metodi.
- Eksperiment, tajriba – sinov uslubi.
- Test sinovlari metodi.
- Statistik ma’lumotlari tahlil kilish usuli.
- Matematika va kibernetika usullari.
- Sotsiologik tadkikot metodi.

Shaklangan har bir metod shaklan bir xil bo`lsada, uni bir o`gituvchi, ikkinchi o`gituvchidan o`rganib, shundayligicha ko`llayvermaydi. Uni har bir o`kituvchi o`z maktabidagi moddiy-texnikaviy shart-sharoitlar bolalarning bilim va malakalarining saviyasi,

dars mavzusi uning o`ziga xos xususiyatlari va boshka shu kabilarni hisobga olishi lozim. Shunga ko`ra boshga o`gituvchi  ko`llayotgan va yaxshi samara berayotgan bir metod boshka o`kituvchi faoliyatida yaxshi natija bermasligi ham mumkin. Shuning uchun  ko`llanma mo`ljalangan har bir metod pedagogik faoliyati davomida  tajriba – sinovdan  o`tkazilishi  ma gsadga muvofigdir. Sinov bir marta emas, bir necha marta o`tkazilishi  lozim  bo`ladi.  CHunki, bir  sinfga mo`ljalangan bir  metodika boshga vagtda yugorida  gad  kilingandek, sharoyitga karab boshga sinfda boshgacha natija berishi mumkin. Tanlangan  va  go`llanib kelayotgan har bir metod shaklan o`zgarmay  qolsa ham, mazmunan o`zgarishi  ham mumkin. O`kituvchining to`xtovsiz  izlanishlari,  tajribalari asosida  uning  yangidan - yangi  kirralari  ochilaveradi. Mutaxasislar orasida tasviriy sa'nati o`kilishi  metodlariga  turlicha   garashlar  mavjud.  Bir guruh mutaxasislar o`kilishi metodlari yagona tizim, yagona talablarga javob berishi lozim deb hisoblandilar. Ularning  fikrlariga   karaganda,  har  bir  metod jamiyat tara  kkiyot davomida shaklanib bo`lgan, uni o`zgartirmasdan shundayligicha  go`llash lozim. Boshga guruh mutaxasislarining fikrlariga  garaganda o`kklishi metodining asosini har bir o`gituvchining shaxsiy ish tajribasi tashkil etishi kerak. Bizningcha, masalaga bunday yondashish to`g`ri emas. Ta'lim - tarbiya  soxasida  o`qitish  metodlari   gatar   kolmaydi, u doimo taraqqiy etadi. Bunga o`kituvchining  tajribasi  albatta  rol  o`ynaydi.  SHunday ekan, pedagogik amaliyotda sinfdagi shart - sharoitlarni hisobga olib, shaklangan metodika asosida ham, o`kituvchining shaxsiy tajribasi asosidan ham foydalana berishi lozim. O`kituvchi o`qitish metodikasini ish jarayonida o`z-o`zidan amalayvermaydi. U ish jarayonida izlanishi, sinov ishlarini o`tkazishni, ko`p adabiyotlar o`kishi, ilg'or tajribalarni o`rganishi hamda ulardan tegishli xulosalar chigarishi asosida paydo bo`ladi.

O`zbek xalq amaliy san'ati va uning o`ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha berish, amaliy san'at asarlarini idrok etishga o`rganish. Bolalarda badiiy-estetik didni o`stirish va ularning badiiy fikr doirasini kengaytirish. Bolalarda milliy g`ururni shakllantirishga yordam berish, ularni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

Xalq amaliy san'ati o`quvchilarda badiiy didni o`stirish bilan bir qatorda ularda borliqni idrok etish madaniyatini va ularga nisbatan estetik munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. U o`quvchilarning badiiy mayllarini amaliy jihatdan to`g`ri yo`naltirish, keyinchalik uy jihozlari, kiyim-kechaklarga to`g`ri munosabatda bo`lishiga, qadimgi va hozirgi zamon amaliy-bezak san'ati asarlarining estetik mohiyatini tushunib etishga ko`maklashadi. O`quvchilarni xalq ustalari ijodidagi obrazlilik bilan tanishtirish, borliqqa estetik munosabatni o`stirishga yordam beradi.

Shuningdek, bu mashg`ulotda bolalarning quyidagi tushuncha va ma'lumotlarga ega bo`lishlari talab etiladi:

- qadimgi va hozirgi zamon xalq amaliy san'ati ustalari, ularning ismlari va familiyalarini

bilish;

- yuqori badiiy saviyada ishlangan amaliy san’at namunalari, shuningdek chet ellarda saqlanayotganligi haqida ma’lumotga ega bo`lish;

- xalq amaliy san’ati bilan bog`liq bo`lgan yirik muzeylarning nomi va joylashgan shaharlarni bilish;

- O`zbekistonda mavjud bo`lgan avvalgi va keyingi davrlardagi xalq amaliy san’ati bilan bog`liq bo`lgan yirik tarixiy va madaniy yodgorliklarni bilish;

- Respublikamizda xalq hunarmandchiligi rivoj topgan shahar va qishloqlarni bilish;

- xalq amaliy san’atining turlari, unda ishlatiladigan asbob va materiallar, qo`llaniladigan usullarni bilish;

- xalq amaliy san’atidan asosiy iboralarni bilish.

Xalq amaliy san’atini o`rganish o`quvchilarning badiiy didini o`stirish, borliqqa estetik munosabatini shakllantirish va badiiy fikr doirasini kengaytirish borasidagina emas, balki u bolalarning tasviriy ijodiy faoliyatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. O`quvchilar qadimgi xalq hayoti bilan bog`liq bo`lgan mavzuda rasm ishlar ekanlar, ular bevosita uy jihozlari (so`zana, gilam, patnis, lagan, tovoq, choynak, piyola, quti, oftoba, la’li, qumg`on, xum, sandiq, choyidish, xontaxta, panjara va x^.k), yog`och va ganch o`ymakorligi buyumlarini tasvirlashlariga to`g`ri keladi. Bunda ularga xalq amaliy san’atidan olgan bilim va tushunchalari qo`l keladi.

Xalk amaliy san’atining o`zbek xalqi hayotida tutgan o`rni, uning turlari haqida ma’lumot berish bilan boshlanadi. Umuman, bu suhbatning quyidagi mazmunda va uzviylikda o`tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

O`zbekistonda san’atning keng tarqalgan turlaridan biri xalq amaliy-bezak san’atidir. Bu san’at asarlari hayotda ishlatiladigan buyumlar- idish-tavoq, kiyim-kechak, uy jihozlari, o`yinchoqlar va boshqa shu kabilarni o`z ichiga oladi.

Xalq amaliy san’ati asarlari odamlarning kundalik turmush ehtiyojlarni qondirish, tevarak-atrofga, bog`-rog`lar, uylarni tashqi va ichki ko`rinishiga go`zallik kiritishga xizmat qiladi. Bu san’at dastgoh san’atdan o`zining bevosita xalq ehtiyojlariga moslanganligi bilan farq qiladi va inson hayotida ishlatiladigan buyumlarning mazmuni bilan bog`lanadi. Amaliy-bezak san’atida hayotdagi mavjud narsalar (masalan, gullar, hayotiy lavhalar va hokazolar) aks etadi. Lekin, ular mustaqil xususiyatga ega bo`lmasdan, ma’lum bir buyum mazmuni va shakli bilan bog`lanib, uni bezashga xizmat qiladi. Amaliy san’at buyumlari birmuncha erkin-ijodkor tafakkuri mahsuli sifatida yaratiladi va u tevarak - atrofga fayz kiritishga qaratilgan bo`ladi. Masalan, jimjimador ustun, eshik, darvozalar, devorlarning

tashqi va ichki tomonlariga ishlanadigan rangli naqsh va bo`rtma tasvirlarni bunga misol qilib ko`rsatish mumkin.

Xalq amaliy san’ati juda qadim zamonda paydo bo`lib, xalq hunarmandchiligi tarzida rivojlanib san’atning eng qadimgi rivoj topgan va barhayot turi bo`lib kelgan.

O`zbek xalqining amaliy san’ati asarlarida ko`proq chamandek ochilgan gulzorlar, bog`lar aks etadi. Chunki, jazirama issiq sharoitda qaqrab yotgan cho`llarni gulzorga aylantirish qadimdan o`zbek xalqiga xos odat bo`lib qolgan. O`zbek xalq amaliy san’atida yog`och o`ymakorligi, kulolchilik bilan bir qatorda, o`zbek kashtasi, atlasi, beqasami va naqshlar berilgan har xil jihozlari dunyo xalqlari orasida katta shuhrat qozongan.

Amaliy san’atning eng ko`p tarqalgan ommaviy turi kashtachilik bo`lib, u qadimiy an’analarga ega. O`zbek kashtachiligi, yuqorida aytib o`tganimizdek, gulzor bog`larni eslatadi. Shuning uchun ham biz o`zbek kashtachiligida guldasta, majnuntol, quyosh, ba’zan daraxt shoxchasiga qo`ngan qushchalar, hatto hayvon va odam tasvirlarini ham uchratamiz.

O`zbekistonning eng qadimiy madaniyat o`choqlari hisoblangan Buxoro va Samarqand so`zanalari o`zining rangdorligi, shakllarining turli-tumanligi va nihoyatda nozik tikilishi bilan farqlanadi. Shahrisabzlik ayollar tikkan kashtachilik buyumlari esa ko`proq gilamni eslatadi. Dorpechlar o`zbek xonadonlarida uyning ichki devorlarining yuqori qismiga aylantirib ilib qo`yiladigan bezak sifatida foydalaniladi. Ularning past qismida shokila-shokila bo`lib, osilib turgan kokilalari bo`ladi, dorpechlardagi bir shakl qayta takrorlanaveradi. Bu esa gulli daraxt yoki guldastani qator qilib safga tizib qo`ygandek manzarani beradi.

O`zbek kashtachiligida do`ppi alohida o`rin egalaydi. Shahrisabzning gilam do`ppisi, Buxoroning zar do`ppisi, Namanganning chust, iroqi, duxoba va boshqa do`ppilari O`rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Do`ppi nusxalari ichida eng mashhuri chust do`ppilaridir. Qora atlas yoki satin ustiga ipak bilan tikilgan bodom gul (yoki qalampir), kizakka tushirilgan gullar do`ppiga nafislik baxsh etadi. 1 - rasm.

Kashtachilik san’atida belbog`, dastro`mol, sandalpech, bo`g`macha va turli to`rvachalar ham nafis bezatiladi.

O`zbek kashtachiligining an’analari hozirgi kunda ham muvaffaqiyat bilan rivojlanmoqda.

Nimshohi gazlamalar-beqasam, banoras va adras, atlaslar ham xalqimiz tomonidan e’zozlanadi. O`zbek xalqi ipak etishtirishda mohir bo`libgina qolmay, balki atlaslar to`qigan, ularni nihoyatda yuqori badiiy did bilan bo`yay olgan. Ipaqdan to`qilgan to`rt, sakkiz, o`n ikki tepkili atlaslar jahonda dong taratgan. Atlaslar kompozitsion jihatdan turli-tumandir. hozirgi kunda uning yuzdan ortiq bezak turi bor. Bular, asosan, turli geometrik shakllar, o`simliklarning gul va mevalari, barglari, uy-ro`zg`or asboblari va hokazolardan iborat.

Ganchkorlik O`zbekistonda amaliy san'atning eng sevimli va qadimiy turlaridan biridir. Amaliy san'atning bu turida buxorolik va toshkentlik ustalar samarali mehnat qilmoqdalar.

Avvallari devorlar o`yma gulli pannolar bilan bezatilar, taxmonlar qirrasiga naqshlar o`yilardi. Tokchalar bo`lsa o`ymakor yoki jim -jimador bezaklar bilan yasatilar, xonaga nur va havo kirib turishi uchun deraza va eshik ustidan tuynuk qilib ,unga ganch va yog`ochdan panjara o`rnatilar edi. Hozirda qandil, navo, ship kabi me'morchilik detallari ganchdan tayyorlanmoqda. Shuningdek, madaniyat saroylari va ma'muriy binolarning ichki va tashqi qismini bpatishda ganchkorlikdan keng foydalanilmoqda. 2-rasm.

O`zbek ganchkorligining ajoyib sahifasini Buxoro yaqinidagi Sitorai Mohi Xosadagi "Oq uy" da, Toshkentdagi Navoiy nomli katta opera va balet teatrida ko`rish mumkin. San'atning bu ajoyib va murakkab turida ustalardan Usta SHirin Murodov (Buxoro),Toshpo`lat Arslonquloz, A. Po`latov, A. Samadov, M.Usmonov (Toshkent), H. Jalilovlar (Samarqand) dong taratganlar.

Amaliy san'atning yog`och o'ymakorligi turi O`zbekistonda qadimdan mavjud bo`lib, o`znning boy an'analariga ega. Yog`och o`ymakorligi 4 asarlari eshik, deraza, qutichalar, qantdon, ustunlar, panjaralar, o`yinchoqlarda o`z aksini topgan. 3-rasm.

Bu borada Xiva ustalarining (Ota Polvonov) ishlari maqtovga loyiqdir. U ishlagan asarlar o`simliksimon elementlarning ko`pligi va bo`rttirib ishlanganligi bilan boshqalarning asarlardan ajralib turadi. Toshkent ustalari (S.Xo`jaev, Niyozqoriev, M.Qosimov, O.Fayzullaev) esa ko`proq "girih" usulida ishlab, geometrik naqshlardan ko`p foydalanishadi. Qo`qonlik usta X.Najmiddinov va uning o`g`li H.Haydarovning ishlari ham diqqatga sazovordir.

YOg`och o`ymakorligi san'atida musiqa asboblarini bezash ham alohida o`rin egallaydi. Dutor va tanburga, chang va torlarga suyak va sadaflardan qadalgan chiroyli naqshlar kishini hayratda qoldiradi. Bu san'at hozirgi vaqtda Toshkentda keng rivojlanmoqda. O`ymakorlik san'atining ajoyib turlaridan biri

Misgarlikdir. O`zbek misgarlik san'ati juda qadimdan shuqrat qozonib kelgan. Unda sariq va qizil misdan ishlangan turli xil xo`jalik va uy-ro`zg`or buyumlari nozik shakllar bilan bezatiladi. 4-rasm.

Bezatilgan mis asboblar Buxoro, Qo`qon, Samarqand, Qarshi va Xiva shaharlarida ko`proq yasaladi. Misgarlikda bu shaharlar ustalarining o`ziga xos ishlash uslubi bor. Lagan, patnis, choyidish, oftoba va obdastalar misgarlik buyumlari ichida eng ko`p tarqalganlari hisoblanadi.

Amaliy san'atning bu turida buxorolik M.Muhsinov, S.Podchaev, N.Solihov, S.Hamidov, L.Fozilov, xorazmlik X.Saidov, M Jonbekov, B.YOqubov, S.Xudoyberdiev, toshkentlik R. Soibovlar samarali mehnat qilganlar.

Qadimdan uy-ro`zg`or buyumlariga bo`yoqlar bilan ajoyib naqshlar ishlanib kelingan. Uni naqqoshlik san’ati deb yuritiladi. Respublikamizda amaliy san’atning bu turi qadimdan rivojlangan bo`lib, unda o`zbek ustalari faqat uy-ro`zg`or buyumlarini emas, balki uy-joy va jamoat binolarining devor va shiplarini ham bezaydilar. San’atning bu «turida har bir xalq o`zicha ijod qiladi. Masalan, rus amaliy san’atida tekis yog`och yuzasiga usta o`simliksimon naqsh rasmini tushiradi, unga maxsus bo`yoqlar beradi. U biroz qurigandan so`ng bo`yog`i o`chib ketmasligi uchun ustidan bir necha bor tiniq lak surtiladi. O`zbek ustalarining ish uslubi

boshqacharoqdir. Bu ustalar eskiz bo`yicha duradgor ishlagan yog`ochga elim surtadilar, uning usti jilvir qog`oz bilan ishqalangandan so`ng, materialga bronza beriladi. Keyin bronza ustidan ulgi asosida kompozitsion tasvir, uning ustiga qora bo`yoq surtib, so`ng`ra naqsh ishlanadi. Naqshlarning o`chib ketmasligi uchun naqsh ustidan bir necha bor toza lak surtiladi. 5-rasm.

Xalq ustalari tajribasida naqshning quyidagi turlari ko`proq qo`llaniladi: islimi - eg`ri chiziqli o`simlik elementlardan iborat naqsh; girih to`g`ri chiziqli elementlardan geometrik shakl hosil qiluvchi naqsh; gulli girih (yoki murakkab) - bu ikki guruhdagi naqsh islimi va girih elementlaridan tashkil topadi. Islimi turdagi asosiy elementlar - novda, yaproq, gul. g`uncha, kurtak, qalampir, meva, poya kabilar hisoblanadi. Poya va novda turli naqshlarning eng ko`p uchraydigan elementlari hisoblanib, ular naqsh hoshiyalarida qo`llaniladi. Girihlar esa to`rsimon va yulduzsimon bo`lib, yulduz nurlarining soni 5 tadan 16 tagacha boradi. 6-rasm. Naqshning uchinchi turi hisoblangan gulli girih naqshida esa naqsh geometrik va o`simlik elementlarning bir-biriga qo`shib ishlatilishi natijasida hosil bo`ladi. Bunda geometrik element doimo naqsh o`rtasida joylashadi.

Naqqosh A.Qosimjonov, YO.Raufov, T. To`xtaxo`jaev, J.Hakimov (Toshkent), A.Boltaev (Xiva), S.Norqo`ziev (Qo`qon) va boshqa ustalar san’atning bu turida mehnat qilib, shuhrat qozonganlar.

Tabiiy loydan turli idishlar yasash va ularni tegishli ranglarda bo`yash kulolchilik xisoblanadi va u O`zbekistonda juda qadim zamondan rivojlangan. Kulolchilik san’ati buyumlariga lagan, tovoq, choynak, piyola, sopol va chinni idishlar, shuningdek, loydan ishlangan o`yinchoqlar kiradi.

Kulolchilik san’atida bezatishning turli usullari qo`llaniladi. Shunday usullardan biri "qalami" usulidir. Bu usulda bezak idishlarga naqshlarning rasmi chizib olinmasdan to`g`ridan-to`g`ri mo`yqalam bilan ishlanaveradi. Bu usullarda ko`proq Rishton va G`ijduvon ustalari ishlashadi. Ba’zi joylarda

ustalar gilvata bilan gul chizib, keyin bo`yoq beriladigan "chizma" usulidan foydalanishdi. Bu usul Toshkentlik ustalar orasida keng tarqalgan. 7-rasm.

O`zbek kulolchilik buyumlari bezak kompozitsiyalaridagi o`simliksimon va geometrik elementlarining boyligi, xilma-hilligi, bo`yoqlar gammasining yorqinligi bilan ajralib turadi. Ularda feruza rang baxt keltiruvchi belgi sifatida ko`p ishlatiladi.

Kulolchilik O`zbekiston me'morchiligida koshinkorlik garzida ham keng qo`llaniladi. Madrasa, masjid, karvonsaroy, hammomlarning peshtoqlarida, xona ichkarisidagi devor bezaklarida kulolchilik san'atining namunalari o`z aksini topgan. hozirgi kunlarda ham kulolchilik jamoat, turar joy binolarini bezatishda keng qo`llanilmoqda. Respublikamizda bir qator usta kulollarni birlashtirgan kulolchilik ustaxonalari mavjud, ular xalqimiz talablariga va didiga mos kulolchilik buyumlarini yaratmoqdalar.

O`zbekistonda kulolchilik sgn'atini rivojlantirishda kulollardan U.Jo`raqulov, A.Muxtorov (Samarqand), U.Umarov, A.Hazratqulov, M.Nazrullaev(G`ijduvon), B.Boisov, R.Matchonov(Xorazm), K. Turobov, YU.Ziyomuhamedov, A.Rahmatov, M.Rahimov, R.Orifjonov, A.No``monov, T.Miraliev, A.Aminov (Toshkent), T.Tillaxo`jaev (Namangan), A.Xudoynazarov (Kattaqo`rg`on), B.Xalilov (Denov), M.Obloqulov (Urgut), aka-uka Hojimirovlar (Andijon), X.Rahimova (Buxoro), SH. Qalandarov (Xo`jayli) va boshqa ustalar katta hissa qo`shganlar.

O`rta Osiyo xalqlari qadimdan o`zlarining zardo`zlik san'atlari bilan faxrlanadilar. Zardo`zlik uchun asosiy material zar, ipak, baxmal kabilardir. Ustalar zar to`qishning ikki turini qo`llashadi. Birinchisi - zaminni zar bilan tikib to`ldirish va ikkinchisi naqshlarni zar bilan tikish. Chevarlar naqshli va syujetli kompozitsiyalarda ko`pincha o`simliklarni tasvirlashadi: gullar, barglar, bodom gullari, paxta shular jumlasidandir. Keyingi vaqtlarda zardo`zlik buyumlarida jonli narsalar ham tasvirlanmoqda.

Qadimdan zardo`zlik Buxoro va Samarqand shaharlarida keng rivojlangan. Hozirgi vaqtda bunday buyumlar Buxorodagi maxsus zardo`zlik fabrikasida, birlashmalar, ustaxonalar va alohida ustalar tomonidan ko`plab ishlab chiqilmoqda.

Darsning oxirgi qismida o`tilganlarni mustahkamlash maqsadida yangi mavzu yuzasidan savol-javob o`tkazish maqsadga muvofiqdir. Bunda o`quvchilarga quyidagicha mazmunda savollar beriladi:

- Xalq amaliy san'ati qaerlarda qo`llaniladi?
- Xalq amaliy san'atining qanday turlari bor?
- O`zbek xalq amaliy san'ati keng rivojlangan shaharlar qaysilar?

- O`zbek xalq amaliy san'atining yirik ustalari kimlar?

- Islimi, girih, gulli girih deganda nimani tushunasiz?

- Amaliy san'atning qaysi turida qanday materiallar va asboblardan foydalaniladi?

Xalq amaliy san'atini o`rganishda darsda texnikaviy vositalardan foydalanish, amaliy san'at buyumlarining namunalari va udarning suratlarini yig`ish, amaliy san'at ustalarining nomlari, ular san'atning qaysi turida asar yaratganliklarini, amaliy san'at rivoj topgan shahar va qishloqlarning nomlarini va san'atning shu turida uchraydigan iboralarni yozdirib borish zarur.

Amaliy san'at xaqida o`tkaziladigan suhbatlarda bolalar e'tibori o`rganilayotgan asar amaliy san'atning qaysi turiga kirishi, uning muallifi, asarning kompozitsiyasi, ranglari, elementlari, materiali, ishlash usullari, amaliy san'at buyumlarining shakli, tuzilishi va bezagi uning vazifasiga mosligi va boshqalarga qaratiladi. Bunday mashg`ulotlar ma'ruza shaklida bo`lsa-da, savol-javob usulidan keng foydalanish lozim.

Amaliy san'at asarlarini o`rganish tasviriy san'at mashg`ulotlarining boshqa turlari bilan bog`lab o`tkazish yaxshi samaralar beradi. Xususan, narsaning o`ziga qarab rasm chizish darslarida amaliy san'at buyumlaridan qutichalar, guldon, sopol laganlar, mis patnislar, oftobalar, xalq milliy cholg`u asboblari, zarli va iroqi do`ppilardan natura sifatida (natyurmort tarkibida, shuningdek alohida) foydalanish bu sanat turining o`ziga xoe xususiyatlarini tez va oson idrok etishga yordam bersa, suhbat darslari esa amaliy san'atdan olgan bilim va tushunchalarni yanada boyitishga va mustahkamlashga olibkeladi,

O`zbek xalq amaliy san'ati namunalari va ularning fotonusxalarini to`plash, ulardan albom tayyorlash, o`zbek xalq amaliy san'atiga doir kitoblar o`qish va ular haqida keng`roq ma'lumotlar to`plash uyga vazifa qilib topshiriladi.

## 1.1. Umumta'lim maktablarida amaliy san'at fanining o'rni.

Kup asrlar davomida uzbek xalki bu san'atning boy xamda rang-barang amaliy – badiiy an'analarini yaratib kelgan. Amaliy san'at - xalkning turmush san'atidir. Uning eng muxim belgisi badiiy ijod bilan moddiy talabning chambarchas boglanganligidir. Badiiyat va amaliy zaruriyatning uzaro uzviy boglikligi ularning goyaviy –badiiy va

ijtimoiy –amaliy moxiyatlarining birligini vujudga keltiradi. Amaliy san’at asarlarini shaklning maksadga muvofikligi xamda shakl va tasvir birligi ajratib turadi. O`zbekiston xalklarining tarixi, kadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o`rganish va taxlil kilish Goyat muximdir. Respublikamiz xukumatining kator xujjatlari Vatamimizning har tomonlama jaxon andozalari asosida rivojlanishiga karatilmokda. Jumladan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, gadriyatlarimiz, milliy san’atimiz namunalaridan. Ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jaxonga mashxur bo`lgan ajoyib san’at namunalaridan keng foydalanishga katta axamiyat berilmokda. Shu manoda Respublika xukumati tomonidan xalg talimi tizimini tubdan islox kilish magsadida 1997 yil «Ta’lim to`g`risidagi»gi konun va «Karoplap tayyorlash bo`yicha milliy dastur» kabul kilindi. Unda O`zbekiston Respublikisining ta’lim soxasidagi siyosatini. Umuminsoniy kadriyatlar, jamiyatning istikbolidagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi» deyilgan.

Bizning ilmiy izlanishlarimiz shuni ko`rsatadiki. Kadimda ajdodlarimiz ustoz-shogird asosida yoshlarga hunar o`rgatish bo`yicha boy tajribaga egadir. Lekin keyingi vaktlarda ajdodlarimizning boy merosidan hamda tajribalapidan to`lig foydalana olmayapmiz. Buning sabablaridan biri ustoz-shogird an’analarini chugur urganmaganligimizdir.

Ajdodlarimiz tajribalari yoritilgan adabiyotlarni ham etarli deb bo`lmaydi. Bundan tashgari ajdodlarimiz boy tajribalarini hozirda hunar o`rgatilayotgan joylarda. Chunonchi: Goyaiy o`quv yurtlari, o`rta maxcuc kasb-hunar ta’lim muassasalarida ustoz va shogird asosida o`rgatayotgan ustaxonalarda. Go`shimcha ta’lim muassasalarida ustoz va shogird shargona odobi to`lik o`rgatilmasligi o`quvchi yoshlarimizni axlok odobiga va bilim darajasiga, umuman, ular ma’naviyatining shakllamishiga salbiy ta’sir etayotganligining guvoxi bo`lamiz. Shuning uchun biz kuyida Markaziy Osiyoda ustoz va shogird an’analari asosida kadrlar tayyorlash tarixi hakida fikr yuritmokchimiz.

Kadimda usta tayyorlashning o`ziga xos milliy an’anaviy asoslari, urf-odatlari gonun-goidalari, talablari bo`lgan.

Xalq xunarmandchiligida ustozlarning o`ziga yarasha ikki fazilatlari ya’ni shaxsiy va kasbiy fazilatlarining o`z mezoni bo`lgan. Shu mezon asosida ustaga salbiy va ijobiy baho berganlar. Shuning uchuy ota o`z farzandini yakka shogirdlikka berishda ustaning yugoridagi mehonga javob bera olish darajasini atroflicha o`rganib chigadi.

Ya’ni «Yomon ustaga berma shogird etib, buzar u buzuk fe’lini o`rgatib», makoliga asosan yaxshi ustaga «Suyagi bizniki, eti sizniki» degan an’ana bo`yicha topshirganlar.

“Bolani usta oldiga olib borish o`ziga yarasha tantana bo`lgan. Bolaning ota-onasi va garindosh-urug’lari «bo`y» degan bo`Girsog va holvaytar gilib, ustaning xuzuriga kelganlar va «bolaning go`shti sizniki, suyagi bizniki», gabiladagi gaplar bilan uning ixtiyoriga topshirganlar.

Keltirilgan pishiriklar o`sha paytdayog birgalikda tanovul etilgan. Usta bolaga hunar o`rgatishdan tashgari butun o`gish davomida ozig-ovkat bilan ham ta’minlab turgan.

Ikkala kelishuvchi tomon orasida yozma ravishda shartnoma bo`lmagan. Kasb o`rgatish tekin bo`lgan».

Buning uchun ustoz shogirdiga mayda-chuyda uy ishlarini buyurgan. Keyin esa ustaga asbob-uskunalarni olib berib turish yoki xom-ashyoni tayyorlab turish, keyinchalik esa eshik derazalarni, ustunlarni o`rnatishga va nagshlarni o`yishga o`rgatgan. Ya’ni bolani yashash bilan birga hunar sirlarini oddiydan murakkabga garab o`rgatib borgan. 3-4 yillardan so`ng yaxshi tajribali shogirdga usta 15-20 kun mobaynida pul ishlab kelishi uchun ruxsat bergan.

Shogirdga usta nomini berishining o`ziga xos urf-odatlari bo`lgan. Bu tantanali kun shogirdning ota-onasi uyida yoki ustaning uyida o`tkazilgan. Marosimga shogirdning karindoshlari, ustozning go`lida ishlayotgam shogirdlar, ustalar, mullalar katnashgan. Ustalar kattasi oksokol yoki ustakalon yoki uning yordamchisi poykor usta nomini olayotgan shogirdning boshiga salla o`raydi. Chopon kiygizib beliga kiyikcha boGlanadi va masalan, duradgor yoki yoGoch o`ymakor usta bo`ladigan bo`lsa belboGiga tesha yoki arra kistirib ko`yiladi. Ustachilik konun koidalarida tarixi va duradgorlikning 12 qoidalari, insonlarga bo`lgan muxabbat, tartib-intizom, haqqo`ylik, o`z kasbini yurakdan yaxshi ko`radigan bo`lish va boshkalar o`rgatiladi. Odatda, shogirdga toza suv berishgan va undan bulgusi usta bir necha gultum ichgan. Shundan so`ng esa shogirdni «usta» degan unvon bilan ataganlar, ustalar va do`stlari uni tabriklaganlar. Keyin katta usta dasturxondan «Nonni suxta» nomli tandir nonni olib kschaning sababchi bo`lgan shogirdiga garab «gaerga borsang ham o`zingni gilgan kulchangmi ko`rsatgin» deb beradi. Yosh usta nonni dasturxon ustiga go`yadi.

Bundam urf-odatlarning har xil turlari bo`lgan. Ba’zi urf-odat bo`yicha bo`lguvchi ustaga biror-bir uyin mustagil bezashga topshirganlar. U bo`lajak usta ishni bitkazgandan so`ng ustalar uning gilgan ishini tekshiradilar va baho beradilar. Agar ish ustalarga ma’kul tushsa, unda urf-odatlar bo`yicha shogirdga «usta» degan unvon berilgan. Shundan so`ng yosh ustaga boshga shaharga borib mustagil ishlashga ruxsat berilar edi. Yoki ba’zi yosh ucralap “xalifa”, ya’ni katta usta boshchiligida birga ishlab yurar edilar.

Ustalap tsex tarikasida katta va kichik duradgorlik, kurilish ishlari olib borib, ular tarkibiga guydagilar kirar edi. Boshliklar: oqsokol, Golib, najorboshi: ularning o`rinbosari poykor; katta ustalar ustoz kalon; ustalar; ustaga yordamchi ustalar - xalfa, nimsherik; shogirdlar hamda mulla ham bo`lgan.

Oksokolni tayinlashda shahardagi eng katta tajribali ustalardan saylagan. Agar ogsogol biror noxag ish gilsa unda biror masjidga poykor, ya'ni oksokol yordamchisi va hamma ustalarning yiGib kayta oksokol saylanar eli. Buxoroda esa ogsogolni gayta saylash boshkacharok edi. Ustalar Buxoro xoniga maxsus ariza yozar edilar.

Buxoroda XIX asr oxiri - XX asr boshlarida duradgorlar boshliGi usta Gulom, O`ratepada esa usta Karim Kajarboshi (usto Abdu Karim Abduxoligov) bo`lgan. Bu shaharlarga xattoki O`rta Osiyoning turli chekkalaridan ustalar kelib ishlaganlar. Aksincha o`ratepalik xalk ustalarini yugori Zarafshon kishloklarida masjid. Madrasa, turar joy binolarini: bezash uchun taklif etganlar. Ular naqqoshlik, yoGoch o`ymakorligi, ganchkorlik va boshga ishlarni bajarganlar.

Ustalar uyushmasm ba'zi turar joylarga ustalarni ishlashga yuborganlar. Ularga ish xagi tarigasida ishlagan joylarida kiyimlar, ko`y, sigir, echki, er yoki pul berar edilar.

Ustalar orasida o`ziga xos musobaka ham bo`lgan, ularning ishlari ko`rgazma gilinib katta ustalar orasida baholangan, Masalan, O`ratepada Ko`k-Gumbaz maxallasida Mavlono Eshon makbarasini ikki o`yma eshigini bajarish usto Karim Horrot va Abdu kodir Horrotlarga topshiriladi. Ular bittadan eshikni o`yib bezatadilar va ularning ikki tabagali ikki eshiklari bir gancha katta ustalar orasida baholanadi. Usta Abdukodiriyning eshigi 70 oltin tanga, Usta Karimning eshigi 100 oltin tanga bilan baholanadi.

Usto Karimning eshigi yukori baholanishining sababi eshikning yukori yarim doira gismi umumiy nagshi kompozitsiyasiga yaxshi boGlangan edi. Abdukodir ustaniig eshigi uchli bo`lib, bino kurilishi kompozitsiyasiga unchalik mos kelmagan.

Ba'zi ustalar o`z ishiga berilgan baholariga kelisha olmas edi, shuning uchun bu holatda ogsogol aralashib o`rtadagi kelishmovchilikni hal kilib berar edi.

1924 yilgacha O`rta Osiyoda boshka hunar turlari ustalari kabi zardo`zlik ham juda ko`p bo`lgan. Chunonchi, Buxoroda 300dan 350 nafargacha ustalar ishlagan. Hunarmandlar o`rta asr hunar shirkatlar ko`rinishidagi maxsus tashkilotga uyushgan edilar. "Zardo`zlik ishlari ustidai nazorat o`rnatuvchi bu tashkilot o`zining saylovchi ma'muriyatiga ega bo`lib, barcha rasm-rusmlarga va urf-odatlarga izchil amal kilar, tantana va yigilishlar o`tkazib turar edilar.

Bulardan tashkari, u ko`prok diniy ruhdagi ba'zi koidalar majmuasini hamda zardo`zlik hunarining kelib chigishi hagidagi afsonaviy rivoyatlarni o`z ichiga olgan, mazmun e'tibori bilan chex nizomiga o`xshab ketadigan o`z risolasiga ham ega edi".

Buxopo ustalarining zardo`zlik kasbi otadan bolaga meros bo`lib kelgan. Asli zardo`z bo`lgan oilaning o`Gli farzandi otasidan zardo`zlikni o`rganib, o`z navbatida u o`z bolalariga o`rgatgan. Pushti kamaridan o`Gli bo`lmagan otalar bu kasbni eng yagin karindoshlariga o`rgatganlar. Kasbning avloddan-avlodga meros kolishi odatdagi hol bo`lganiga garamay, zardo`zlik ham boshga kasblar bilan bir katordan o`rin olgan. Uning tarkibida biz misgarlikni ham,

SHuni esda tutish lozimki, ayrim bo`yoglarni bir-birlari bilan aralashtirishda ba’zi bir ehtiyot choralarini ko`rish lozim bo`ladi. Chunki, to`k rang tusiga ega bo`lgan bo`yok tarkibiga boshka rang aralashtirilsa uning tusi ham to`glashadi. Bu esa o`z navbatida rang tusining tiniklik darajasiga ta’sir etadi. Ayniksa, moy bo`yoklarida ishlangan nagshlarning tuslari keyinchalik to`glashib, korayib ketishga moyil bo`ladi. Agarda naqshlar uzok vakt saklash uchun mo`ljallangan bo`lsa ularni iloji boricha ochig rang tuslarida bo`yash tavsiya etiladi. Umuman olganda naqsh sirtiga iloji boricha kuyosh nuri tushmaydigan bo`lishi lozim. Shuningdek, nam havo yoki suv tegishi naqshning uzok muddatga saklanishi uchun jiddiy to`sik bo`lishi mumkin. Umuman olganda badiiy naqqoshlikda ana shu sharoitlarni hisobga olish kerak bo`ladi.

Badiiy naqqoshlikda kuyidagi ranglar va ularning tuslaridan keng ko`lamda foydalaniladi:Zangori ranglar va ularning tuslari (och zangori, zangori, to`k zangori, och havo rang, havo rang, to`k havo rang, moviy ko`k).

Sarik ranglar va ularning tuslari (och sarik, sarik, to`k sarik sarkish, limonli sarik, kadmiyli sarig, sargish zargaldog). Gizil ranglar va ularning tuslari (och kizil, kizil, to`k kizil, och va to`k kirmizi, kirmizi, alvon rang, och va to`g zargaldog, zargaldog ranglar va boshkalar).

YAshil rang va ularning turlari (och va to`k yashil, yashil, sargish yashil, to`tyoyi (to`taki), zaynovi (chiroyli o`tkir rang yashil), zumrad rang, ko`kish yashil. Binafsha rang va ularaning tuslari (och va to`k binafsha , binafsha siyoh rang, ko`kish binafsha gizgish binafsha va shu kabilar). Jigar ranglar va ularning tuslari (och va to`k jigar rang, jigar rang, kizgish va sargish jigar rang, goramtir jigar rang va boshgalar). Gora rang va uning tuslari (och va to`g gora, gora och va to`g kul rang va shu kabilar).

YUgorida ko`rsatib o`tilgan ranglar va ularning tuslari ko`pincha badiiy nagsh koloritini belgilashda katta o`rinni egallaydi. Shunga ko`ra rang muhiti biror bir anig rang tusi koloritiga bo`ysundiriladi. Masalan jigar rang, havo rang, sargish yoki gizgish ranglar muhitida ishlangan nagsh kompozitsiyalari shular jumlasidandir.

## 2.3. Amaliy-bezak san'atida tabiiy shakllarni yasash

Mashg`ulot o`qituvchining amaliy san'at haqidagi suhbati bilan boshlanadi. Bunda o`qituvchi o`z e'tiborini ko`proq xalq ustalarining faoliyatlariga qaratadi. Xususan, har bir usta biror badiiy bezak ishini bajarganda bevosita u yoki bu naqshlar tasvirini ishlashga to`g`ri keladi. Ular naqsh elementlarini amaliy san'at namunalaridan olishadi yoki mustaqil ravishda tabiiy yoki geometrik shakllarni stilizatsiya qilib ishlatishadi. Stilizatsiya ikki xil yo`l bilan bajariladi. Birinchisi, shaklini soddalashtirish, ikkinchisi, murakkablashtirish. Soddalashtirish yoki murakkablashtirish deganda, biz faqat narsalar tasviri yoki naqshlar tasvirini soddalashtirish yoki murakkablashtirilshigina emas, balki ularning ranglari o`zgartilishini ham tushunamiz. Amaliy san'at ustalari ijodida hayotda uchraydigan hamma narsalar stilizatsiya qilinib, ular amaliy san'at buyumlarida o`z aksini topadi.

Suhbat davomida o`qituvchi stilizatsiyalanmagan tabiiy shakl va ularning stilieatsiyalangan shakllarini jadval orqali yoki doskada rasmini chizish orkali namoyish etadi. SHuningdek, dars jarayonida

soddalashtirilgan stilizatsiya haqida ham ko`rgazmali suhbat o`tkaziladi.

Stilizatsiyalash jarayonini bevosita bolalar ko`z o`ngida ko`rsatish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun o`qituvchi doskaga narsalarning real tasvirini, uning yoniga stilizatsiyalangan tasvirini chizib ko`rsatadi. Xuddi shu ish bolalar tomonidan doskada ham bajariladi va u sinfda ijodiy vaziyat hosil bo`lishiga yordam beradi. Ana shunday uzoq davom etmaydigan mashqlardan so`ng o`qituvchi dars uchun maxsus tayyorlangan tabiiy shakllarning haqiqiy ko`rinishi tasvirlangan jadvalni doskaga ilib qo`yadi va ularni bolalar o`z daftarlarida ko`chirib olishlariga ko`rsatma beradi. So`ng`ra bolalar ularni o`z rasm daftarlarida mustaqil ravishda stilizatsiyalaydilar. Dars jarayonida bolalarga har bir naqsh elementi qaysi tabiiy shakldan olinganligi, bu naqsh elementlarining nomi haqida ma'lumot berib boradi. Xalq amaliy san'atida keng tarqalgan naqsh elementlaridan - barg, shobarg, bodom, oygul, bofta, uchbarg, sebarggul, kupbarg kabilar hisoblanadi. 10-rasm.

Dars oxirida bolalarning bajargan ishlari namoyish taxtasiga qo`yiladi va ular birgalikda tahlil qilinadi. Vazifani yuqori saviyada bajargan bolalarga baholar qo`yish mumkin.

Sinfda bajarilgan ishlarning qalamtasvirini bo`yash uyga vazifa qilib topshiriladi.

CHoynak uchun tagliklar zskizini ishlash uchun avvalo panjaralar haqidagi ma'lumotlarga ega bo`lmoq lozim.

Panjaralar nihoyatda turli-tuman shaklda bo`lib, turmush va me'morchilikda keng qo`llaniladi. Ular cho`yan, sim, yog`och, ganch kabi materiallardan tayyorlanib, eshik, darvoza, ko`cha, istiroqat bog`larida to`sqich vazifasini o`taydi. Qadimda bino derazalariga ganch va yog`ochli panjaralar o`rnatilib undan uy ichini quyosh nuridan to`sish maqsadida foydalanilgan.

Suqbatda bolalarning asosiy e’tibori panjaralarning o`ziga xos hususiyatlariga qaratiladi. Ularning eng muhim xususiyatlaridan biri undagi elementlarning o`zaro chambarchas bog`liqligidir. Bu narsa panjaralarning bir butunligi va mustahkamligini ta’minlaydi.

Panjaralar tahlilini ularni doira shaklidagilari yuzasidan o`tkazilgani ma’qul. Bunda naqshlarning ikki xildagisi ko`rsatiladi. Ularning birinchisida naqsh bo`laklari doira radiusi yo`nalishida joylanadi va ular markazga tomon torayib boradi. Ikkinchi turida naqsh elementlari aylana bo`lib joylashadilar.

Suhbatda shuni qayd qilish lozimki, o`zbek naqshlari o`zining serjiloligi, jim-jimalarining ko`pligi, o`simliksimon elementlarining boyligi bilan boshqa xalqlarning naqshlaridan farq qiladi. Suhbat davomida o`qituvchi panjaralardan namunalar ko`rsatadi va ularni tahlil qiladi.

Taglikda ularning shakli, qanday naqsh elementlaridan tuzilganligi, elementlarni bog`lovchi bo`laklari, ularni materiali haqida fikr yuritiladi. Xuddi shuningdek, o`qituvchi o`zi ishlagan taglik va eskizlarni ko`rsatadi va ularni ham yuqoridagi kabi tahlil qiladi.

Mana shunday qisqacha tushuntirishdan so`ng bolalarga choynak uchun taglik xkizini ishlash yuzasidan topshiriq beriladi.

Topshiriqni bajarish uchun o`quvchilarga quyidagi vazifalar va ko`rsatmalar beriladi.

1. Taglik uchun maqsadga muvofiq shaklni topish: (doira, to`rtburchak, kvadrat, romb, uchburchak va h.k).
2. Tanlangan shaklga mos hodda naqsh kompozitsiyasini topish.
3. Eskiz ishlashda panjara ustiga tushadigan og`irlikni hisobga olish.
4. Esxiz ishlashda panjyarya naqshlarning o`ziga xos xususiyatlarini hisobgaolnsh.

Bu vazifalarni uqntuvchn doskaga yozadi va unga rioya qilishnn boyaalardan talab qiladi.

Dars oxirida o`qituvchya kar galgidek bolalar rasmlaridan namunalar ajratib oladi va ujarni bokalar bilan birgalikda tahlil qiladi.

Uyga sinf ishini davom ~~liirish~~ va ularni bo`yoq bilan ishlab tugallash vazifa qilib topshirijadi.

O`quvchilarning shakl va bezakning uzviy bog`liklngn haqidagi tushunchalaryann mustahqamlash. Ularning tasviriy malakalari, badiiy didlarnnn badiiy fikr doiralarini kengaytirish.

tayyorlangan naqsh eskizlari. Yog`ochdan ishlangan quticha namunasj Naqsh bnlan bezatilgan quticha.

O`kituvchi xalq amaliy san’ati turlaridan hisoblangan naqqoshlik san’ati xakida gapirib, naqqosh ustalar uy devorlari, shiplari, ustunlarni bezatish bilan bir qatorda, uy-ro`zg`or buyumlaridan xontaxta, sabzi taxga, kuticha kabilarni bezatishlarini ham aytib o`tadi. Naqsh bilan bezatilgan

kushchani ko`rsatib, uning ustki va yon tomonlaridagi naqshlarning o`ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi. Qutichaning yoyilmasini ko`rsatib, uyaga kanday naqshlar to`g`ri kelishi haqida to`xtaladi.

O`qituvchi to`g`ri to`rtburchak shaklidagi naqshlarning o`ziga xos xususiyatlarini o`quvchilarnnng yodnga tushirish maqsadida ularga to`g`ri to`rtburchak shaklidagi amaliy san’at buyumlarini yoki ularning suratlari, reproduktsiyalarini ko`rsatadi va uvtsvm bolalar bilan birgalikda tahlil qiladi. Bunda amaliy san’at  xaqida fikr yuritib, o`qituvchi asosiy e’tiborni ularnnng kompozvtsiyasiga, ranglariga, bezak elementlariga, ularning o`zaro boglikligiga naqsh foni (zamini) va bezak elementlarining o`zaro uyg`uvxngyaga kyaryagadi. Naqsh kompozitsiyasi tahlil qilinganda, to`g`ri to`rtburchak shaklidagi naqshlarning kompozitsiyasi kvadrat shaklidagi naqshlariivg komnovishyasiga nihoyatda yaqinligini ham qayd qilib o`tiladi. Bunday naqshlarnn bolalar uchinchi va to`rtinchi sinflarda bir necha bor chyupishikiyari eslatiladi. O`qituvchi suhbatni davom ettirib, bu naqshlarkn anaavy svnat ustalari ishlaganliklarini qayd etadi va ana shu ustalar kyabya boyaalar ham naqshlar ishlashlari mumkinligini bildiradi. Bolalarga  ishlashga kirishishdan avval naqsh qutichani bezatish uchun mo`ljallanganligi uqtiriladi.

Suhbat davomida naqsh chizmalari va elementlari namoyish etiladi va o`qituvchi bolalarga har bir ishning naqsh elementini nomini qayta qayta ta’kidlaydi. Bolalar bu naqsh elementlarini chizib, mashq qilishlari ham mumkin. Shu bilan birga, o`qituvchi o`zi tayyorlab kelgan ko`rgazmali qurol orqali quticha bezaklarining yoyilmalarini ham ko`rsatadi. Bu ikki yoyilmadaga naqshning biri girih, ikkinchisi islimi usulida ishlangan bo`ladi.

Bolalar tasviriy faoliyatining birinchi bosqichida quticha yoyilmasini chizib oladilar, so`ng`ra naqsh elementlaridan xohlaganlarini tanlab, ularni yoyilma ustida tasvirlab, yangi kompozitsiyalar hosil qiladilar. Naqshlarning ranglarini ham bolalar mustaqil tanlaydilar. Rang tanlashda ularning sonini ma’lum miqdorda chegaralash lozim, aks holda marom va naqsh ranglarining uyg`unligi buzilishi mumkin.

Bu dars bolalarning ijodkorligini oshirishga qaratilganligi sababli ularning bu faoliyatlariga imkon boricha mustaqillik berish lozim, ba’zan o`zlashtirishi pastroq bo`lgan o`quvchilar bilan yakka tartibda ish olib boriladi.

Mazkur vazifa o`z mazmuniga ko`ra ijodiy bo`lganligi sababli, uni bolalar uyda yoki kelasi darsda davom ettirishlari mumkin. Birinchi darsda rasmlar qalamda ishlansa, ikkinchi darsda bo`yaladi.

O`quvchilarni ijodiy fikrlashga o`rgatish, ularning ijodiy qobiliyatlari, badiiy didini o`stirish. Rasm ishlash malakalarini rivojlantirish, badiiy fikr doirasini kengaytirish.

Turli kompozitsiyadagi har xil gulli, turli rangdagi gazmol parchalari. 2. Turli gazmollarning slayd yoki diapozitivlari. 3. O`qituvchi va bolalar tomonidan ishlangan gazmollarning turli eskizlari. 4. To`rsimon naqsh sxemasi va elementlari tasvirlangan jadvallar.

Yangi mavzuning bayoni doskada turli gazmol parchalari va gazmol eskizlarini namoyish etishdan boshlanadi. Shundan so`ng o`qituvchi dars mavzusini e’lon qilib, bolalar e’tiborini gazmollarga qaratadi, ularga quyidagi mazmunda savollar berib, darsga bo`lgan munosabatlarini faollashtiradi:

- Bu gazmollarni qaysi biri sizga yoqadi va nega?
- gazmollar qanday naqsh elementlaridan tashkil topgan?
- bu gazmollar bezagida ritm bormi?
- gazmol naqshlarida uning elementlari takrorlanib kelganmi
- yoki almashnnibmi?
- bu gazmollarning qaysi birini qanday maqsadlarda ishlatish
- mumkin?

- bezak naqshi bilan uning foni o`rtasida biron bir bog`lanish
- bormi?
- qaysi gazmollardagi bezaklarda rasmlar to`g`ri tanlanganu,
- qaysilarida noo`rin, nega? Sizningcha, qaysi ranglardan
- foydalanilsa maqsadga muvofiq bo`lardi?
- bezakda ritm shakllar yordamida hosil bo`lganmi yoki rang
- yordamida?

Bu savollarga olingai javoblar annqlashtirilib, umumlashtirilib bo`lingandan so`ng o`qituvchi "Bugun siz ham bezakchn rassomlar kabi gazmol uchun bezak (naqsh) namunasini ishlaysiz" deb topshiriq beradi. Bu gal ishlaydigan naqshlaringiz avvalgi ishlagan naqshlaringizdan farq qiladi. O`tgan yilgi chizgan rasmlaringiz yo`lsimon, doira, to`rtburchak shaklida bo`lib, ular yopiq naqshlar deb atalardi. Bu galgi chizadigan naqshlaringiz ochiq (cheksiz) naqsh deb ataladi. Chunki, bu naqshlarga e’tibor bereangiz, ularning hamma tomoni ochiq, ulardagi naqshlarni to`rt tomonga cheksiz davom ettirish mumkin. Bunday naqshlarning asosida to`r shakli yotadi.

Bezak elementlari vazifasini geometrik elementlar (uchburchak, to`rtburchak, doira, kvadrat, ko`pburchak) va boshqa shakllar, tabiat mahsulotlari tasvirlari (gullar, barglar, meva va sabzavotlar, mayda hasharotlar, qushlar) bajaradi. E’tibor bersangiz bezakda o`simliklar tasviri haqiqiy holda berilmagan. Ularda o`simliklar tasviri biroz o`zgartirilib, ya’ni stilizatsiya qilinib tasvirlangan. Siz ham bezak eskizini chizganingizda bunga rioya qiling, O`z ishingizda xalq amaliy san’atida

qo`llaniladigan naqsh elementlaridan atirgul, paxtagul, oygul, chinnigul, bodom, anor, shobarg, marg`ula, gajak kabilardan foydalansangiz yanada yaxshi bo`ladi.

O`qituvchi suhbat davomida gazmol eskizini ishlashdan avval undan qaysi maqsadda foydalanishni higobga olib (kiyimlik, parda, dasturxon va h.k,) bezak elementi, rangi, kompozitsiyasi, bezak o`lchovlari tanlanishi haqida gapiradi. Agarda gazmol kiyimlik uchun mo`ljallangan bo`lsa, shaxsning jinsi, yoshi, kiyimini qaysi faslda kiyishga mo`ljallanganligi hisobga olinadi. Bunda o`quvchilar naqsh elementi o`lchovini, rangini hisobga oladilar.

Darsda bolalarning bajarishlari lozim bo`lgan ishlari shundan iborat bo`ladiki, ular bezatuvchi rassomlar kabi kiyimlik uchun (yosh qizlar, o`rta yoshdagi ayollar, qari ayollarning yoshlari hisobga olinadi) gazmol eskizini ishlaydilar. Eskiz ishlash uchun bolalar avvaldan o`qituvchi tomonidan jadval tarzida tayyorlangan va doskaga osib qo`yilgan gazmol uchun mo`ljallangan naqsh chizmalari va elementlarini yaxshilab o`rganadilar, So`ng`ra ulardan o`zlariga yoqqanlarini tanlab olib, naqsh tuzadilar. Bolalar jadvalda aks etmagan naqsh elementlaridan foydalanishlari ham mumkin. Bolalar hohlagan gullari, meva, sabzavotlar, xasharot va qushlar tasvirini stilizatsiya qilish orqali naqsh ishlashlari ham mumkin.

Dars jarayonida bolalar eskizni mustaqil ravishda va ijodiy tarzda bajaradilar. Bo`sh o`zlashtiruvchi bolalarga o`qituvchining yordam berishi tabiiydir.

Dars oxirida o`qituvchi bolalar rasmlaridan eng yaxshilarini ajratib olib, ularni birgalikda tahlil qiladi. Shu bilan birga, bolalarning olgan badiiy bilimlarini mustahkamlash maqsadida o`tilganlar yuzasidan savol javob o`tkaziladi. Savollar taxminan quyidagi mazmunda bo`ladi:

- gazmollar qanday maqsadda tayyorlanadi?
- gazmol gullarini kimlar ishlaydi?
- qanday naqshlarga "Ochiq naqshlar" deb ataladi?
- "CHeksiz naqshlar" chi? Nega ular shunday deb ataladi?
- namoyish etilayotgan namunalarda ritm naqsh orqali hosil
- bo`lganmi yoki rang orqalimi"
- siz ko`rib turgan naqshlarda elementlar takrorlanadimi yoki
- almashinadimi?

bu naqshlarda qaysi naqsh elementlari tasvirlangan? Ularning

nomlarini ayting. Uyga turli gazmollar, ko`ylak gullarini kuzatib o`rganish vazifa qilib topshiriladi. Kuzatish asosida sinfda bajarilgan ishlar qaytadan ko`rib chiqiladi, tuzatishlar kiritiladi. Bolalar uyda o`z naqshlarini bo`yash uchun tayyorlab qo`yadilar. Buning uchun naqshning butun yuzasi mo`yqalam bilan ho`llanadi.

Mazkur mavzu asosidagi ikkinchi mashg`ulotda o`qituvchi bolalar rasmlaridan yana bir bor ko`rtazma tashkil etib, ularning yutuq va kamchiliklarini yaxshilab tahlil qnladi. Shundan so`ng

gazmol eskizini bo`yashga doir ko`rsatshlar beryadya. O`qituvchi o`zi tayyorlagan naqsh namunalarini namoYish etib, ularning ranglarini tahlil qilib beradi. Tahlilda qaysi naqshdan qaysi yoshdagi ayollar ko`ylagi uchun foydalanish mumkinligi, fon va naqsh elementlari o`tasidagi munosabatlar, rang nomlariga e'tibor beriladi. Shundan so`ng bolalar o`z ishlarini mustaqil ravishda bo`yashga kirishadilzr. Dars oxirida har galgidek ko`rgazma o`tkaziladi. 14 rasm.

Uyga sinf ishini yakundat vaznfa qilib gopshiriladi.

O`quvchilarga kiyimlar, xususan milliy kiyimlar haqida ma'lumot berish. O`ebek milliy kiyimlarini idrok etishga o`rgatish. Ularda badiiy estetik didni o`stirish. Bolalarning badiiy fikr doirasini kengaytirish.

Uy, jomakor, dam olish, marosim, sport, harbiy, maxsus, milliy o`zbek kiyimlarining suratlari, dialozitialari, slaydlari, rasmlari.

Darsni o`qituvchi suhbatdan ko`ra savol javoblar orqali tashkil etishi bolalarning bilishga bo`lgan munosabatlarini faollashtiradi. Shu sababdan ularga quyidagicha savollar beriladi:

- Kiyimlar qaysi maqsadlarda kiyiladi?
- Qanday kiyim turlarini bilasiz?
- Kiyimlar qanday materiallardan tikiladi?
- Erkaklar va ayollar kiyimlarini qanday farqlash mumkin?
- Bolalar va kattalar kiyimlari o`rtasida qanday farqlar bor?
- Turli millat kiyimlari o`rtasida qanday farq bor?
- Bu kiyimlarda farq bo`lishining sababi nimada?

Bu savollarga javoblardan so`ng muallim o`quvchilarning javoblaridagi kamchiliklarni to`ldiradi, xatolarini tuzatadi, so`ng`ra u javoblarni umumlashtirib, quyidagi mazmunda suhbat o`tkazadi:

Dastlabki davrlarda odamlar o`zlarini tashqi muhit ta'siridan saqlash maqsadida kiyim kiyganlar. Ba'zi o`lkalarda ayrim xalqlar kiyimlardan bezak maqsadida ham foydalanganlar. Avvallari kiyimlar hayvonlar terisidan, daraxt po`stlog`i va barglaridan tayyorlangan. Keyinchalik ularni yovvoyi, shuningdek, madaniy o`simliklar tolasidan, hayvonlarning juni va mo`ynalaridan ishlashgan.

Har bir xalqda kiyimlar kishilarning yopshga qarab ham bir birlaridan farqlangan. YOshlarning kiyimlari yorqin rangdagi ochiq, serjilva gulli bo`lsa, katta yoshdagilarniki esa, aksincha, yoshlariga mos holda vazmin, oddiy rangdagi materiallardan tayyorlangan.

Kiyimlarning tuzilishi, rangi, guli, materiali odamlarning iqtisodiy jihatdan ta'minlanishi va xizmat mavqeiga ham bog`liq bo`ladi.

Kiyimlarning bir necha xillari bo`ladi. Ular bosh kiyimlar, ustki kiyimlar, poyafzallar bo`lib, o`z vazifasiga ko`ra turli materiallardan turli o`lchovlarda tayyorlanadi. Bunda kishilarning jinsi, yoshi, ularni qaysi faslda kiyishi, o`lcho^lari, ularning estetik didi hisobga olinadi. Kiyimlarda havo, nur, issiqlik, nam o`tkazuvchanlik xususiyatlari hisobga olinib, ular o`simlik va kimyoviy tolalar, ipak, jun, mo`yna, teri kabi materiallardan tayyorlanadi. Kiyimlar vazifasiga ko`ra uy kiyimlari, jomakor kiyimlar, dam olish paytida kiyiladigan kiyimlar, marosim kiyimlari, sport kiyimlari, harbiy kiyimlar va maxsus kiyimlarga bo`linadi.

Ko`pchilik kiyimlar har bir xalqning madaniy taraqqiyoti bilan bog`liq bo`lib, milliy xususiyatga zga. Ular o`z tuzilishi, o`lchovi, materiali jihatidan turlicha bo`lib, mahalliy ob havo sharoitini hisobga olinib tikiladi.

Jomakor kiyimlar esa mehnat jarayonida foydalanish uchun mo`ljallanganligi sababli pishiq, arzon, oddiy matodan tayyorlanadi. Ular har bir kasbning o`ziga xos xususiyatiga qarab, turli rangda va turli pishiqlikda, turli materiallardan ishlanadi.

Masalan, xizmati suv bilan bog`liq bo`lgan ishchi yoki tazmatchilarning (daladagi suvchilar, kemalardagi baliqchi, dengizchilar va b.) kiyimlari suv va nam o`tmaydigan rezina yoki sintetik materiallardan -tayyorlansa, o`t o`chiruvchilar, po`lat quyuvchilarning kiyimlari o`tga chidamli

materiallardan ishlanadi.

Tibbiyot, oziq ovqat ishlab chiqarish va ular bilan savdo qiluvchi mlar, oshpaz va sartaroshlarning xizmati tozalik bilan nihoyatda bopgiqligi sababli ularning kiyimlari oq, ko`chalarni tozalovchi va remont qyuguvchi xizmatchilarning kiyimlari mashinada kelayotgan shofyorlarga oqdan ko`rinib turishi uchun zarg`aldoqrangda bo`ladi.

Sport kiyimlari ham o`z materiali, shakliga ega. Sport pyyamlarining turli materiallardan ishlanishiga sabab, ular sportchining kaaday ob havoda o`tkaziladigan musobaqada ishtirok etishiga m}xkallangandir. Masalan, qishki sovuq havoda o`tkaziladigan musobaqada vortchnlarning kiyimlari jun materialdan tayyorlangan bo`lishi maqsadga mtsofmts bo`lsa, yozgi issiq kunlarda esa paxta gazlamasidan tayyorlangan arni kiygan ma’qul. Yomg`irli kunlarda engil sintetik shlardan tayyorlangan kiyimlar qo`l keladi. Shuningdek, sport lrini tayyorlashda ularning shakliga alohida e’tibor beriladi. Mich.pp, yozgi kunlarda foydalaniladigan kiyimlar keng`roq, qishda uchun mo`ljallanganlari esa ixchamroq bo`ladi.

Rasmiy kiyimlarni harbiy xizmatchilar, ichki ishlar va aloqa fMashri, sud va prokuratura, o`t o`chiruvchilar, o`rmon xo`jaligi hodimlari kagar Bunday kiyimlarni shu toifadagi kishilarning xizmat vazifasi

m mazmunk talab etadi.

Xususan, harbiy xizmatchilarning kiyimlari haqida fikr

■ bo`lsak, avvalo ular boshqa toifadagi kishilardan yaqqo; turyupi uchun rasmiy kiyim kerak bo`ladi. Bunday kiyimla^

■ boshqa talablar bilan bir qatorda qurolli kuchlar va harbi{ I shuhratini qadrlash vazifasini ham nazarda tutadi.

## 2.4. Amaliy san’at fanidan 1 soatlik dars ishlanmasi.

**Darsnint mavzusi:** Mustakillik yillarida o`zbek amaliy san’ati

**Darsniig vazifalari:** O`quvchilarda mustaqillik yillarida xalq amaliy san’atining taraqqiyoti haqida tasavvur hosil qilish, xalq ustalari bilan tanishtirish, ularning asarlarini idrok etishga o`rgatish. Uquvchilarni badiiy didini o`stirish va badiiy fikr doirasini kengaytirish.

**Darsning jixozlaiishn.** Mustaqillik yillarida ijod qilaetgan ustalarning fotolari. Shu davrda yaratilgan yuksak badiiy saviyali amaliy san’at namunalarining foto nusxalari, slaydlari, diapozitivlari va diafilmlari.

**Darsning mazmuni:** O`zbekistonning mustaqilligi milliy madaniyatimiz, ayniqsa xalq amaliy san’ati va xunarmandchiligi taraqqiyotiga keng yo`l ochib berdi. Hadimdan rivoj topib kelayotgan naqqoshlik, ganchkorlik, yog`och o`ymakorligi, badiiy kulolchilik, misgarlik, kashtachilik turlari yana gurkirab o`sa boshladi, uning milliy badiiy an’analari yanada rivojlanmoqtsa. San’atni unutilib ketgan ayrim turlari hisoblangan matoga gul bosish, suyak va tosh o`ymakorligi, zargarlik, pichoqchilik, gilamchilik turlari qayta tiklandi. Amaliy san’at va xalq ^unarmandchiligining yangi turlari chinni haykaltorosh ligi, charmda miniatyura ishlash, inkrustatsiya, qovoq shakliga naqshlar bilan ishlov berish kabi turlari paydo bo`ldi va bu yo`nalishlarda ustalar yuksak ko`taringilik va mahorat bilan mehnat qilmoqdalar.

O`zbekistonda milliy amaliy san’at va ^unarmandchilikni rivojlantirishda Respublika Vazirlar Mahkamasining 10 iyul 346 sonli qarorida 1997 yilgi "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab quvvatlash chora tadbirlari to`g`risida" gi qarori alohida ahamiyat kasb etdi. Ana shu qaror asosida "Musavvir" ilmiy ishlab chiqarish Markazi tashkil etilib, uning qoshida "Xunarmand" uyushmasi faoliyat ko`rsata boshladi. Bu uyushma o`z saflariga minglab tajribali, shuningdek, yosh ustalarni birlashtirdi. Ularning ijodiy ishlari uchun har tomonlama shart sharoitlar yaratib berilmoqda, ma’naviy va moddiy yordam ko`rsatilmokda. Uyushmaning deyarli barcha viloyatlarda bo`linmalari ochilgan bo`lib, u erdagi ustalar mahalliy amaliy san’atni milliy badiiy an’analarini rivojlantirib yuksak badiiy saviyali asarlar yaratmokdalar. hozirgi zamon xalq ustalaridan A. Akbarov, A. Abdullaev, A Umarov, S. Rahmatullaev, A.Karimov, M. Murodov, B. Rahmonberdiev, N. Oblaqulov va boshqa ustalar xorijiy mamalakatlarda o`tkazilgan qator ko`rgazmalarda o`z asarlari bilan qatnashib kelmoqdalar. Jumladan, Frantsiyaning Parij shahrida, Olmoniyaning Berlin shahrida, Malaziyaning Kuala Lumpur shahrida, YAponiyaning Tokio shahrida, hindistoning Dehli shahrida, Moskva va Olmaota shaharlarida o`tkazilgan ko`rgazmalar shular jumlasidandir.

Mustaqillik yillarida sobiq Ittifoq davridagi ko`plab tayziq ostida bo`lgan milliy amaliy san’at turlaridan, naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, yog`och o`imakorligi, badiiy kulolchilik, kashtachilik kabi turlarining badiiy an’analarini tajribali ustalardan O. Fayzullaev, S. Rahmatullaev, A. Azlarov, M. Rahimov, S. Otajonov, A. Nazrullaev, 3. Obloberdieva, A. Raximov, I. Komilov, M. husainov, A. Sultonov, M. Usmonov, X. Nuralievlar davom ettirmoqdalar.

YOsh iqtidorli ustalardan A. Rahimov (Toshkent), M. Rahimov (Rishton), N. Obloqulov (Urgut), A. Nazrullaev (G`ijduvon), M. Alimbaev (Buxoro), X. haqberdiev (Samarqand) kabilar badiiy kulolchilik yo`nalishida samarali mehnat qilmoqdalar

Naqqoshlik sohasida esa M. To`raev, A. Ilxomov, B. Rahmonberdiev, S. Shukurov, X. Nuraliev, A. Karimov (Toshkent), A. Akbarov, M. Husainov (Namangan), J. Jamolov, SH. Mahmudov, S. Mahmudov (Qo`qon), 0. Ergashev, S. Akbarjonova (Andijon), M. Boboev (Farg`ona), Respublikamizda shuhrat qozondilar.

Hozirda ganch o`ymakorligi Toshkentda tez rivoj topib poytaxtimizning turli jamoat binolarini bezatishda keng qo`llanilmoqda. Uning vakillari qatoriga A. Sultonov, A. Po`latov, M. Sultonov, M. Usmonov, M. Murodov, 3. Yusupov, U. Tohirov, A. Umarov (Toshkent), B. Davlatov (Xorazm), A. Abdurahmonov (Qo`qon) kabi ustalarni kiratish mumkin.

YOg`och o`ymakorligi san'ati qadimdan Xorazm, Buxoro va Samarqandda rivoj topgan bo`lsada, hrzirga kelib Toshkentlik ustalar bu yo`nalishda karvonboshilik qilmoqdalar 0. Fayzullaev, S. Raxmatullaev, A. Abduraxmonov, A. Azlarov, X. Odilovlar shular jumlasidandir. Xorazmlik X. Bog`ibekov, Andijonlik Y. O`taganov, Qo`qonlik X. Umarov, A. Abdullaevlar ham yog`och o`ymakorligi bo`yicha yuksak badiiy saviyali asarlar yaratmoqtsalar.

O`zbek kashtachilik san'atining asosini tashkil etadigan so`zana, joynamoz, do`ppi, nimcha, zarchopon kabilar tikish sobiq Ittifoq davrida tanazzulga yuz tutgan bo`lsa, qozirda bu sohada keskin burilish ro`y berdi. Kashtachi ustalardan X. G`ulomova (Samarqand), 3. Obloberdieva (SHofirkon), S. Rahmatullaev (Surxondaryo), M. Ataeva ( Sirdaryo), SH. Obloqulova (Urgut), N. Xonto`raeva (Toshkent), S. Shomurodova (Qo`qon), G. Ekabergenova (Qoraqalpog`iston) kabilar amaliy san'atni bu turini oyoqqa turg`azishda jonbozlik ko`rsatmoqdalar. Kashtachilik sohasida bir qator viloyatlarda xususiy ustaxonalar ochilgan bo`lib, ularda ko`plab yoshlar san'at sirlarini o`rganmoqtsalar va yuksak badiiy saviyali asarlar yaratmoqdalar.

Zargarlik san'ati ham yo`qolib borayotgan san'at turlaridan edi. Uni tiklash va rivojlantirishda hozirda Toshkentlik ustalardan F. Dadamuh_amedov, N. Xolmatov, G. Toshevalar jonbozlik ko`rsatmoqdalar.

O`zbek xalq amaliy san'atida yangidan paydo bo`lgan yo`nalishlar hisoblangan chinnidan haykalchalar ishlash, inkrustatsiya, qovoqdan ishlangan idishlarni naqshlash, charm materiallarga miniatyura ishlash, gazmolga gul bosish, tosh o`ymakorligi kabi san'at turlari bo`yicha olib borilaetgan ishlar ham diqqatga sazovordnr. Ayniqsa, pichoqchilik bo`yicha Andijonlik A. Muqiddinov, Namanganlik A. Abdullaev, tosh o`ymakor ligi bo`yicha Nurotaning G`ozg`onidan E. Abdullaev, X. Yo`ldoshev, A. Haitovlar, charmda miniatyura ishlash bo`yicha Toshkentlik S. Po`latov, B. Io`ldashevlar, qovoqdan ishlangan idishlarga minatyura ishlash bo`yicha Toshkentlik S. Ziyomov, B. Hojimegov, SH. Rixsievlar, gazmol gul bosish bo`yicha Toshkentlik A. Rahimov, chinni xaykaltoroshligi bo`yicha toshkentlik SH. Mo`minova, misgarlik san'ati bo`yicha M. Madalievlarning milliy amaliy san'atni bu turlarini tiklash va rivojlantirishdagi xizmatlari katta bo`lmoqda.

SHuni ham aloqida qayd qilish lozimki, xalq amaliy san’atini rivojlantirish maqsadida Milliy rassomchilik va dizayn institutida Nukus, Buxoro, Namangan, Toshkent davlat pedagogika universitetlarida amaliy san’atdan malakali ustalar tayyorlaydigan guruhlar tashkil etilgan. Bu o`quv yurtlarini bitirganlar Respublikamizda amaliy san’at turini rivojlantirishda katta rol o`ynaydi.

Amaliy san’atdan yuqori malakali ustalar etkazib chiqaradigan o`rta maxsus o`quv yurtlari san’at litsey va kolledjlari Toshkent, Buxoro, Navoiy, Samarqandda ochilgan.

Xullas, O`zbekistonning mustaqillik yillarida o`zbek xalq amaliy san’ati o`zining yangi taraqqiyot bosqichiga kirmoqda. Azaldan mamlakatimizning madaniy markazlaridan hisoblangan Samarqand, Buxoro, Toshkent, G`ijduvon, Marg`ilon, Xiva, Rishton, SHofirkon, Urgut, Xo`jayli, Qo`qon, Nurota, G`urumsaroy, Asaka, CHimboy, SHo`rchi, Termiz, Urganch, Jarqo`rg`on, Denov, G`allaorol, Jizzax, Zomin, Namangan, Kosonsoy, Qarshi, SHerobod, Beshkent, Xonqa, Nukus kabi shahar va qishloqlarimiz ustalari o`zlarining qadimiy shuhrat^arini tiklash maqsadida samarali mehnat qilmoqdalar.

Mazkur mazmundagi suhbat darsida o`qituvchi mavzuga doir amaliy san’at namunalarini elayd, diapozitiv yoki diafilmlar yordamida namoyish etadi. Ular bo`lmagani taqdirda amaliy san’at namunalarining reproduktsiyalari, foto nusxalari bolalarga ko`rsatiladi. Namoyish savol javob tarzida o`tkazilishi darsda bolalarni faol bo`lishlariga yordam beradi. 25 rasm.

SHuningdek, darsda mashhur amaliy san’at ustalarining foto portretlarining ko`rsatilishi ham foydadan xoli emas.

**Darsda o`tilganlarni mustahkamlash uchun bolalarga quyidagicha savollar beriladi.**

Mustaqillik yillarida o`zbek amaliy san’atida ro`y bergan asosiy o`zgarishlar nimalardan iborat ?

Avvallari etarlicha e’tibor berilmagan amaliy san’atning qaysi turlari qayta tiklandi va gurkirab o`sa boshladi? Sobiq Ittifoq davrida unitilgan amaliy san’atning qaysi turlari paydo bo`ldi ?

Mustaqillik yillarida amaliy san’atning qaysi yangi turlari paydobo`ldi? Mustaqillik yillarida shuhrat qozongan qaysi ustalarni bilasiz va ular amaliy san’aning qaysi turlari bilan shug`ullanadilar ?

Xalq amaliy san’ati rivoj topgan markazlar Respublikamizni qaysi shahar va qishloqlarida bor ? Uyda Mustaqillik yillarida ijod qilgan xalq ustalarining hayoti va ijodi hamda ularning asarlari yuzasidan materiallar to`plash va albomga yopishtirish vazifa qilib topshiriladi.

## Xulosa

O’zbek xalqining qadimiy amaliy san'ati deganimizda biz albatta xalq xunarmandchiligining asosini tashkil etib kelgan amaliy san'at haqida fikr yuritishimiz kerakligini Siz darxol tushungan bo’lsangiz kerak. Chunki xalq amaliy san'ati xalq xunarmandchiligining asosini tashkil etib kelgan.

Zeroki, o’zbek xalqi xunarmandchiligining tarixiy ildizlari xalq amaliy san'ati asosida taraqqiy etib juda qadimgi, mumtoz hamda buzrukvor asriy tajribalarga tayanib o’zining serunum hamda serjilo, shu bilan bir vaqtda har bir insonni xayratga solib kelgan madaniy merosdir. Odamzotning madaniyatga bo`lgan ilk qadami ibtidoiy davrdan boshlanganligini qayd etishimiz kerak. Turmush, tirikchilik hamda uy-ro`zg`or taqozosi talablari bilan vujudga kelgan buyumlar, kundalik zarurat uchun kerakli bo`lgan asbob-anjoblar yasash hamda ularni har xil ko’rinish va shakllarda ijod etish har bir davrning majburiyatiga aylanib qolgan. Bu buyumlar turmushda foydalanishga qulay, sodda hamda katta kuch talab qilmay qilishiga qaramay yillar o’tishi bilan ularning zamon talabalariga moslanishi, yangicha nusxa hamda ko’rinishlarida ijod

etilishi o’z davrining moxir ustalaridan ijodiy izlanish va safarbarlik talab etib kelgan. Madaniy merosimiz xisoblanmish maxobatli me'moriy obidalar, noyob va go’zallikni o’zida tarannum etgan zebu-ziynatlar, har xil ro’zg’or anjonlari, ip va ipakdan tikilgan matolar, loy va ganchdan yasalgan sopol hamda chinni idishlar, xum va xumdonlar, kulolchilik san'atiga mansub bo’lgan buyumlar barchasi xalqimizning moddiy hamda madaniy merosi bo’lib kelmoqda. Shu boisdan xalq ustalari yaratgan noyob asarlarga e'tiborimiz yanada kuchaymoqda.

Usta bobokalonlarimizning xayotiy hamda ijodiy yo’lini o’rganish, ularning sermaxsul an'analarini bilish, ular yaratgan uslub va yo’llarni yanada takomillashtirish, go’zallikka bo`lgan intilishlarini chuqur xis etish davrimiz talabi taqozosi bo’lib qolmoqda.

Xalq amaliy san'ati hamda xunarmandchilik markazlari.

Qadimshunos va tarixchi olimlarimizning tadqiqotlaridan ko’rinib turibdiki, O’zbekiston jabxasida qadimdan har voxaning amaliy xunarmandchiligi markazlari vujudga kelgan va asrlar davomida shakllanib borgan. Bu markazlarda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalq ehtiyoji uchun kerakli bo`lgan buyumlar ishlab chiqarilgan va bozorlarda sotilgan. Fargona viloyatining Marg’ilon, Qo’qon, Namangon viloyatining Chust, Andijon viloyatida Shaxrixon, Buxoro viloyatida Gijduvon, Buxoro shaxri, Qashqadaryo viloyatida Qarshi, Samarqand viloyatida Urgut, Surxondaryo viloyatida Boysun ana shu markazlardandir. Bu shaharlarda xunarmandlar aloxida-aloxida yoki to’p-to’p bo’lib yashashi natijasida har bir maxalla muayyan kasbiy xunar nomi bilan atalib kelingan. Bular misgarlik, kudungarlik, to’qimachilik, po’stindo’zlik, yurmado’zlik, pichoqchilik, zargarlik, ko’nchilar, maxsigarlar, do’ppiduzlik, tandirchilar, va o’nlab boshqa turdagi xunar nomlarini misol qilish mumkin.

Bobokalonimiz soxibqiron Amir Temur haqida ma'lumotlarga ega bo`lganimizda fikr yuritgan edikki, bu ulug’ zot chet el yurishlaridan keyin Samarqandga 150000 dan ziyod turli kasb egalari va xunarmandlarni olib kelib ular uchun shaharlarda va ayrim qishloqlarda xunarmandlar maxallarini tashkil qilgan ekanlar. Bunday harakat va uzoqni ko’ra-bilish albatta Movaraunnaxrning moddiy-madaniy taraqqiyotini yanada yuksaltirishga qaratilgan reja bo’lgan. Bunday an'ana xozirgi kunimizda ham davom etib yangidan-yangi kasb-xunar bilimgoxlari faoliyat ko’rsatib o’z samarasini bermoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Karimov I.A. «Yangicha fikralsh va ishlash davr talabi» asarlar tuplami-Toshkent.:O'zbekiston 1997 yil.
2. Karimov I.A. «Yuksak ma`naviyat-engilmas kuch» Toshkent.: «Ma`naviyat» 2008 yil
3. Karimov I.A. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Barkamol avlod-O'zbekiston tarakkiyotining poydevori» Toshkent.: Shark 1997 yil.
4. Karimov I.A. «Vatan sajdagox kabi mukaddasdir» asarlar tuplami; Toshkent.:O'zbekiston 1996 yil
5. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz» asarlar tuplami-Toshkent.:O'zbekiston.
6. X. Egamov. Bo'yoqLar bilan ishlash. T, 1982 yil
7. N.N.Volkov. Svet i jivopis . M, 1984 g.
8. V.V.Alekseeva. Chto takoe iskusstvo. M, 1991 g.
9. A.Zatsev. Nauka o svete i jivopis . M, 1986 g.
10. Bulatov S.S. Ganchkorlik, naqqoshlik va yog'och o'ymakorligiga oid adabiyotlarning izohli lug'ati. – T.: "Mehnat", 1991.
11. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati, - T.: "Mehnat", 1991.
12. Bulatov S.S., Ashurova M.O. Amaliy san'atdan qisqacha izohli lug'at. – T.: Qomuslar bosh taxririyati. 1992.
13. Bulatov S.S., Dadashev L. Naqsh alifbosi. – T.: "Cho'lpon", 1999.


## Mundarija:


Kirish………………………………………………………………..….3

**I-bob. O’zbek xalq amaliy san’ati**…………………………………..……5
1.1. Amaliy san’at fanining tarixi………………………............……..16
1.2. Amaliy san’at turlari va naqqoshlik san’ati………………………...26
**II-bob. Milliy naqsh turlari va uning tarbiyaviy axamiyati**……...31
2 .1. Amaliy san’atda tabiiy shakllar yasash…………………………….38
2.2. Milliy naqshlarda rangshunoslik……………………………………..41
2.3. Amaliy-bezak san’atida tabiiy shakllarni yasash………………………44
2.4. Amaliy san’at fanidan 1 soatlik dars ishlanmasi…………………………..54
Xulosa…………………………………………………………….…..59
Foydalanilga adabiyotlar...........................................................................61
Ilovalar…………………………………………………….……………….63

## Ilovalar



















